



1991-yildan  
chiqa boshlagan.

2016-yil. 9-son.

ISSN 2010-5584

# TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALOQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА  
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ  
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE  
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@umail.uz

*1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni*



USHBU SONDA

25

*Go'zal va betakrimsan,  
muqaddas Vatanim,  
jonim senga fido,  
O'zbekistonim!*

Iste dodning  
mo'jizakor kaliti

3-bet



*Prevat, tavot rahim,  
Milliy tilshunoslik  
va ona tili ta'limi  
taraqqiyoti*

Qo'shimchanning  
milliy tashnifi va uni  
o'qitishga doir  
muammolar

6-bet



*O'qituvchiga yordam*

Adabiyot darsligi:  
ilmiy va imloviy  
nuqsonlar muammosi

14-bet

25

*«Жизнь моя, судьба моя –  
родной мой, неповторимый  
Узбекистан!»*

Вдохновляющие успехи  
нашей страны

49-bet



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

**2016-yil. 9-son.**

1991-yildan chiqa boshlagan

# TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА  
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ПРЕПОДАВАНИЕ  
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE  
TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

## Bosh muharrir:

Bahodir JOVLIYEV

## Tahrir hay'ati:

Baxtiyor DONIYOROV  
Mamatqul JO'RAYEV  
Shahnoza JO'RAYEVA  
Islom ZOKIROV  
Ulug'bek INOYATOV  
Abduhamid MUXTOROV  
(bosh muharrir o'rinbosari)  
Nizomiddin MAHMUDOV  
Abdurahim NOSIROV  
Nargiza RAHMONQULOVA  
Hikmatilla RASHIDOV  
Sirojiddin SAYYID  
Ergash UMAROV

## Jamoatchilik kengashi:

Muhammadjon ALIYEV  
Ergash ABDUVALITOV  
Manzura DADAXO'JAYEVA  
Lutfullo JO'RAYEV  
Ehson TURDIQULOV  
Valijon QODIROV

## Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV  
Gulnoza VALIYEVA

## Nashr uchun mas'ul:

Dono XO'JAYEVA  
Madina BILALOVA

## Tahririyat manzili:

100011, Toshkent shahri, Navoiy  
ko'chasi, 30-uy.

Telefon: (0 371) 244-04-18,  
244-04-15, 244-20-63, 244-26-89.

e-mail: [til\\_adabiyot@mail.uz](mailto:til_adabiyot@mail.uz)  
vab-sayt: [www.tilvaadabiyot.uz](http://www.tilvaadabiyot.uz)

Jumaldan ko'chirib bosilgan maqolalar «Til va adabiyot ta'limidan olindi, deb izohlanishi shart.

Jumalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 20.09.2016-yilda topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84<sup>1</sup>/<sub>2</sub>. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times» gamiturasini, 10, 11 kegl. «O'QITUVCHI» NMIU bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh. Yangishahar ko'chasi, 1. Buyurtma № 263-16. Adadi 8680 nusxa. Bahosi: «Kelishilgan narxda».

## MUNDARIJA

GO'ZAL VA BETAKRORIMSAN, MUQADDAS VATANIM,  
JONIM SENGGA FIDO, O'ZBEKISTONIM!

Nilufar Namozova. Iste'dodning mo'jizakor kaftli.....	3
<b>DIQQAT, YANGI RUKN: MILLIY TILSHUNOSLIK VA ONA TILI TA'LIMI TARAQQIYOTI</b> B.Mengliyev, B.Bahridinova. Qo'shimchaning milliy tasnifi va uni o'qitishga doir muammolar.....	6
<b>DOLZARB MAVZU</b> Ma'rufjon Vahobov. Ta'lim sifati monitoringi konseptual modeli.....	10
Muxlisa Do'stmuhamedova. Til o'rgatishda mahorat – samaradorlik omili.....	12
<b>O'QITUVCHIGA YORDAM</b> Shavkat Nishonov. Adabiyot darsligi: ilmiy va imloviy nuqsonlar muammosi.....	14
<b>TADBIR SSENARIYSI</b> Sharofat Toshmirzayeva. Muqaddasim, munavvarim, ona tilim.....	16
<b>DARS – MUQADDAS</b> Dilrabo Boboyorova. G'afur G'ulomning «Shum bola» qissasi tahlili.....	18
Jamilaxon Mahmudova. Olmosh so'z turkumi.....	21
<b>ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR</b> Sarvinov Rustamova. Tinish belgilari bilan tanishuv.....	23
Klaraxon Mavlonova. Og'zaki va yozma nutq boyligiga qanday erishiladi?.....	24
Ravshanbek Egamberdiyev. Insho – o'quvchi ijodiy imkoniyatlarining ko'zgusi.....	26
Surayyo Eshonqulova. Navoiy g'azallarini o'rganishda yangicha yondashuv.....	28
<b>TRENER MASHG'UOTLARI</b> Svetlana Xan. Kids' English 1 & 2.....	31
<b>ADABIY TAQVIM</b> Islomjon Yoqubov. Vatan va ona timsollari egiz birlikdir.....	34
<b>TADQIQOTLAR</b> Oybek Barziyev. XIX asr oxiri – XX asr boshlari o'zbek she'riyatida band tizimlari.....	36
Orzibonu Yusupova. Badiiy matnlarda tasdiq va inkor gaplarning qo'llanilish xususiyatlari.....	38
Saodat Qambarova. Mutolaa madaniyatining didaktik talablari.....	40
<b>QO'SHIMCHA MATERIAL</b> Marhabo Umrzoqova. Yig'iq atov gaplar lingvopoetikasi.....	45
<b>AMALIY FOYDALANISH UCHUN</b> Komila Rajabova. Xalq og'zaki ijodi – ma'naviyat sarchashmasi.....	46
«ЖИЗНЬ МОЯ, СУДЬБА МОЯ – РОДНОЙ МОЙ, НЕПОВТОРИМЫЙ УЗБЕКИСТАН» Г.Х.Мансурова. Вдохновляющие успехи нашей страны.....	49
Лола Каххарова. Большое счастье и огромная ответственность.....	51
<b>АКТУАЛЬНОЕ СЛОВО ДНЯ</b> И.М.Казакова. Школа нового поколения – это школа мышления, вопросов и ответов.....	53
Ж.М.Муминов. Влияние семейных традиций на развитие молодежи.....	55
<b>ИЗ ОПЫТА ПЕДАГОГА</b> Н.К.Сабиров. Живой поэтический голос.....	58
З.Д.Матякубова. Поэзия – это показатель духовности.....	59
<b>МЕТОДИКА. ОПЫТ</b> Т.А.Степанкова, А.Т.Твардовский «Рассказ танкиста».....	62
У.А.Аннакулова. Жизнь и творчество И.А.Крылова.....	63
Н.Е.Дмитрусенко. Фразеологизмы и их классификация.....	64
<b>ИЗУЧАЕМ ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ</b> И.О.Зиядуллаев. Дистрибуция каузативных глаголов на синтагматическом уровне.....	70
<b>ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ</b> З.К.Эгамназарова. Своеобразие русской сатирической прозы второй половины XIX века.....	72
<b>ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ</b> А.Г.Байматова. Эффективные методы развития профессиональной компетентности педагогов при повышении квалификации и переподготовке работников народного образования.....	74
<b>ПОЛЕМИКА</b> Г.С.Кинжаева. Использование информационно-коммуникационных технологий в процессе обучения.....	76
О.С.Абдуллаева. Повышение эффективности учебно-воспитательного процесса.....	78
<b>ДУХОВНЫЕ ЦЕННОСТИ</b> Д.У.Джурев. Роль Махмудхджи Бехбуди в совершенствовании народного образования в Туркестане.....	80

TIL VA ADABIYOT  
TA'LIMI  
LANGUAGE AND LITERATURE  
TEACHING

журнали

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA va PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

**Qo'shtirnoq («»):**

– Bizlar qo'shtirnoq, tirnoq, Ikkimiz ko'pdan inoq. Gar ko'chirma gap matnida, Olamiz oraga shu onda.



Badiiy asar, muassasa nomlarin Satrlarda o'rtamizga olamiz. Do'q, po'pisa, kinoyadan qo'rqmang sira, Tashqariga chiqarmay chegaralab qo'yamiz.

O'quvchilarga tinish belgilarini yuqoridagi kabi noan'anaviy usulda o'rgatish dars samaradorligini oshiriradi, qolaversa ularning ona tiliga bo'lgan qiziqishlarini o'stiradi.

**Tire (-):**

– Tanishtirsam men o'zimni «tire» bo'laman, Bog'lamasiz ega, kesim orasida turaman. Ko'chirma gap, muallif gap borasida Unutmang hech, men ularning orasida.



Ko'chirma gap, dialogda gap boshida kelaman, Izohlovchi so'z va gapda o'z o'rnimni bilaman. Yordamimga muhtoj bo'lar doimo qo'shma gap ham, Yozuvda sergak bo'lib xatolarga bering barham.

<sup>1</sup>M.Abduraimova, G.Ziyodullayeva. Bayonlar to'plami. T., 2012. 20-bet.

**Klaraxon MAVLONOVA,**  
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat  
pedagogika universitetining  
katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

**OG'ZAKI VA YOZMA NUTQ BOYLIIGIGA QANDAY ERISHILADI?**

O'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish o'qituvchilar oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Bunda badiiy matndan foydalanib og'zaki va yozma nutqni o'stirish muhim omillardan hisoblanadi. Chunki badiiy matnlar asosidagi mashqlar o'quvchilarning fikrlash layoqatini shakllantirishga yordam beradi.

Ona tili darslarida mashq materiali sifatida keltirilgan badiiy matnlarning til xususiyatlarini o'rganish shunchaki badiiy nutqning tuzilishi, yozuvchining so'z ishlatish mahorati bilan tanishishdangina iborat emas. O'quvchi badiiy matnlarga o'zi yaratadigan matn uchun andoza sifatida qaragasina, ularni o'rganishning amaliy ahamiyati namoyon bo'lib, ta'limiy samarasi ortadi. Shu bois ba'zan tahlil so'ngida o'quvchilarga o'zlari yozadigan ijodiy inshoda badiiy tasvir unsurlarini ishlata boshlashlari, oz bo'lsa-da emotsional-ekspressivlikni aks ettira bilishlari maqsadga muvofiq. Aytmoqchimizki, o'rganilayotgan til hodisasini aniqlash va izohlash uchun berilgan badiiy matnlardan o'quvchilar nutqini o'stirish maqsadida ham foydalaniladi. Bunda og'zaki va yozma nutqni o'stirish, nutq madaniyatini rivojlantirishga doir quyidagi ish turlarini amalga oshirish lozim:

- 1) badiiy matn mazmunini qayta hikoya qilish;
- 2) badiiy matn namunasiidan foydalanib biror mavzuda og'zaki hikoya qilish;
- 3) badiiy matn asosida bayon yozish va uni obrazli ifodalarnuqtay nazariidan tahlil qilish;
- 4) berilgan mavzuda ijodiy insho yozish (matn yaratish);
- 5) inshoni baholash, takomillashtirish (tahrir qilish).

Quyida ana shu ish turlarini tashkil etish bo'yicha qisqacha so'z yuritimiz:

1. Og'zaki nutqni o'stirishda badiiy matn mazmunini qayta hikoya qilish nutq o'stirishda muhim rol o'ynaydi. Buni amalga oshirishda «Ona tili» darsligida berilgan hajman kichik, sintaktik qurilmalarga boy bo'lgan badiiy matnni tanlagan ma'qul.



O'quvchilarga 5-sinf «Ona tili» darsligi (keyingi mashq ham ushbu darslikdan olingan)dagi 26-mashqda keltirilgan quyidagi badiiy matnни qayta hikoya qilishni topshirish mumkin:

*U ko'l yoqasiga kelib qolganini ham sezmedi. Ro'parasida tiniq suvday zilol ko'zguni ko'rdiki, uning go'zalligidan to'xtab qoldi... Ko'ldagi suv jimirlab turar, quyiroqda ko'kimtir tusga kirgan silliq toshlarga ohista unilardi. Elyoming vujudiga orombaxsh shabada yugurdi. U hovuchiga suv olib yuz-qo'lini chaydi. Tomchilar go'yo durtlar singari ko'lga bir zumda singib ketdi... (H. Ikromov)*

Qayta hikoyalashning kommunikativ jihati nutq orqali tinglovchilarga biror ta'sir o'tkazishdir. Shu bois o'quvchilarga matn mazmunini ta'sirchan qilib yetkazishga harakat qilish vazifasi topshiriladi. Buning uchun esa parchadagi badiiy tasvir vositasi, emotsional-ekspressiv til hodisasi, ruhiyatni ifodalovchi so'zlardan imkon qadar foydalanish lozimligi ta'kidlanadi.

O'quvchilar yuqoridagi matnни quyidagicha qayta so'zlab berishlari mumkin:

*Asar qahramoni Elyor ko'lga boradi. U atrofini tomosha qilib ko'l yoqasiga yetganini sezmay qoladi. Siz ko'lni ya-*

qindan ko'rganmisiz? U tiniq suvday zirol ko'zguna o'xshaydi. Ko'l suvlari yaqindan juda go'zal edi. Suvlar ohista jimirlab, qirg'oqdagi ko'kimtir silliq toshlarga asta uilardi. Elyor hovuchiga suv olib yuzini yuvdi. Uning yuz-qo'lidan ko'ga qaytib tushayotgan tomchilar gavhar-u durlarga o'xshardi.

To'g'ri, 5-sinfda o'xshatish haqida nazariy ma'lumot berilmaydi. Lekin tasvimi bu usuli o'quvchilar nutqida tez-tez uchrab turgani uchun ularga qayta hikoya qilish chog'ida qiyinchilik tug'dirmaydi. Bu o'rinda ta'lim oluvchilarning nutq saviyasini hisobga olish tamoyiliga amal qilinadi. Badiiy matn ularning nutqini boyitib, ta'sirchan so'zlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

II. Badiiy matn namunasidan foydalanib biror mavzuda hikoya qilish. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga avvalgi darslarda o'qilgan matnlardan andoza olish mumkinligini ta'kidlab, ularning tasavvurini ishga tushiradi. O'quvchilarning ko'z o'ngida gavdalangan odam, narsa-buyum, o'rin-joy, voqea yoki hodisa og'zaki bayon uchun material to'plashga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Og'zaki bayon ko'pi bilan 10 ta gap hajmida bo'ladi. Shuning uchun to'planadigan material ko'p bo'lmaydi. Bu tanlangan mavzuga ham bog'liq. Masalan, ko'l haqidagi badiiy matn qayta hikoya qildirilgach, o'quvchilarga «Buloq bo'yida» mavzusida og'zaki bayon qilish topshiriladi. Hikoyada ishlatiladigan so'zlarning bir qismi avvalgi qayta hikoyada qo'llangan so'zlardan olinishi mumkin. Bunga buloq bilan bog'liq so'zlar qo'shiladi.

O'quvchilarga og'zaki bayonda ham tinglovchiga hayajon ulashadigan qilib ta'sirli so'zlash topshirig'i beriladi.

5-sinf o'quvchilaridan biri bu vazifani quyidagicha bajardi: *Men biznikiga mehmonga kelgan qarindoshimiz Halima bilan buloqqa bordim. Suv yeri qarindan qaynab chiqayotgan buloq bo'yida bo'lganmisiz?*

Tabiiki, badiiy matnning til xususiyatlarini o'rganish, qayta hikoya qilishda ulardan foydalanish og'zaki bayonda badiiy tasvir vositalari, emotsional-ekspressiv til hodisalari, ruhiyatni ifodalovchi so'zlarning paydo bo'lishiga, so'zli-obrazli fikrlay boshlashning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

III. Badiiy matn asosida bayon yozish qayta hikoya qilishning yozma shakli hisoblanadi.

Bayon shakli kichik bo'ladi. Ushbu ish turiga ko'pi bilan 20 daqiqa vaqt ajratiladi. Badiiy — matndan olingan parchaning til xususiyatlari qisqa tahlil qilingach, uning asosida bayon yoziladi.

5-sinfda 308-mashqda berilgan quyidagi badiiy matn asosida bayon o'tkazish mumkin:

*O'ylab-o'ylab topdim. Sag'bonda bitta ammam bor. Shunikiga boraman... Ammamning eri — mo'ynado'z-kosib.*

*Bola-chaqalari bo'lmaganidan uylari biznikiga o'xshash to's-to'polon emas, yig'inchaqli, innaykeyin, bularning uyi salkam ajoyibxona.*

*Ularning uyidagi gullarning-ku son-sanog'i yo'q: gulbeor, gulira'no, gulsafsar, gulhamishabahor, qo'qongul, qalampirgul, namozshomgul, sambitgul, atirgul, kartoshkagul, qashqargul — ishqilib, sanab tugatib bo'lmaydi. (G'afur G'ulom)*

Mashq shartiga ko'ra parchadagi qo'shma va juft so'zlar aniqlanadi va ularning ma'no kuchaytirish jihati-ga e'tibor qaratiladi.

73-mashq. Matni o'qing. Meva nomi ostida birlashadigan so'zlarni ko'chirib yozing. Ularning farqli belgilariga diqqat qiling.

*Havo issiq va shabadasiz edi. O'riklar g'arq pishgan. Yo'llarga to'kilib oftobda oltinlanib yotadi. Oldin-pishar jonoqi olmalar olovday yonadi. Hali ... shaftolilarning shoxlari yerda. Qizilsultonlar yoqutday chaqnaydi. O'ktam mevalarni saralaydi, hidlaydi, biroq yegisi kelmaydi, ko'zi to'q. (Oybek)*

O'quvchilarning yozgan ishlari yozuvchi foydalan-gan til vositalari nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi va baholanadi.

IV. Berilgan mavzuda ijodiy insho yozishda dastlab material to'planadi.

Inshoda mayda-chuyda detallar bisyor bo'lib, bayon quruq bo'ladi. Motiv ham, maqsad ham, o'quvchi (kitobxon)ga biror ta'sir o'tkazish ham bo'lmaydi. O'quvchi inshoda o'zining ichki olamini ochib bera olishi kerak. U kuzata olish malakasiga ham ega bo'lishi lozim. Kerak-li narsalarni qayd eta olish, baholay bilish, munosabat bildirish uquvni talab etadi.

Demak, inshoga material to'plash va uni yozishda o'quvchilarning xayolotini ishga tushirish, boyitish, hissiyot bilan to'yintirish zarur. Ijodiy (badiiy uslubdagi) inshoga quyidagi talablar qo'yilishini unutmaslik kerak:

a) tasvirlanayotgan hayotiy faktlar haqqoniy bo'lishi lozim;

b) estetik ta'sir ko'rsata olish maqsadiga amal qilinishi shart;

b) o'quvchilar o'z individual xususiyatlarini ishga solishlari zarur.

Og'zaki bayonga baho berganda ham, inshoni tahlil qilganda ham mazmunning to'liq ochilgani, detallar tanlab ishlatilgani, isbotlar borligi, yetarli ekanligi, kompozitsiyasi yaxshiligi, bayonning ifodaliligi va boshqalar hisobga olinadi.

O'quvchilarga «Ta'tilda» mavzusida o'xshatishdan foydalanib matn yaratish topshiriladi. Ular ba'zan noo'rin o'xshatishlar topadilar: *Quyosh olov kabi yoritib turibdi.* (Olov qizdirishi mumkin.) Ayon bo'ladiki, o'xshatishda o'quvchi o'z subyektiv kuzatishlariga asoslanadi. Natijada subyektiv qarashlar yuzaga keladi.

O'quvchiga o'xshatishlarni zo'rlab tiqishtirish yaramaydi. O'zi topgan o'xshatish unga quvonch baxsh etadi, yorqin, ifodali jumla qurganidan mamnun bo'ladi.

Ona tilidan o'rganiladigan mavzular o'quvchilarga nazariy bilim bersa, badiiy matn ushbu bilimlarni hayot bilan bog'lashdan tashqari, til hodisalariga boshqa nazar bilan, ya'ni real voqelikni badiiy tasvirlash nuqtayi nazaridan qarashga o'rgatadi. Masalan, **Jo'xori** so'zi ot deb tanishtirilsa, «**dala malikasi**» shu ot o'rnida ishlatilgan tasviriy vosita sanaladi. Ushbu tasviriy vosita obraz yaratish bilan bog'lanadi.

V. Tahrir uchun o'quvchilarning bo'sh yozilgan insholari, tuzgan matnlari olinadi. Insho, matn yoki bayon o'qib eshittiriladi va o'quvchilarning fikri tinglanadi. Tahrir ishlari sinfda og'zaki, uyda yozma tarzda

bajariladi. Til me'yoriga bo'lgan sezgirlik, hushyorlik o'quvchilarning estetik tarbiyasida katta ahamiyat kasb etadi. Til sezgirligi adabiy til me'yorlarini o'rganish, xatolar ustida ishlash, yozma ishni tahrir qilish jarayonida shakllanadi. Ushbu ishlardan so'ng o'quvchilar uйда kichik insho yozib (matn tuzib) keladilar. Keyingi darsda uйда tuzilgan matn katta qiziqish bilan o'qiladi. O'quv-

chi qo'shimcha ravishda yozganlarini hikoya qilib berishi mumkin.

Xullas, badiiy matnning til xususiyatlarini o'rganish yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar o'quvchilarni badiiy ijod sir-asrorlari bilan izchil tanishtirish, ijodiy matn yaratish layoqatini oshirish, nutq madaniyatini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A. Aliyev. Maktabda yozuvchi uslubini o'rganish. O'qituvchilar uchun qo'llanma. T.: O'qituvchi, 1977. 12-bet.
2. O'sha manba, 13-bet.
3. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, V.Qodirov, Z.Jo'raboyeva. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. T.: Ma'naviyat, 2007. 221-bet.
4. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. T.: Tasvir, 2009. 27-bet.

**Ravshanbek EGAMBERDIYEV,**  
Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi  
22-umumiy o'rta ta'lim maktabining  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**INSHO – O'QUVCHI IJODIY  
IMKONIYATLARINING KO'ZGUSI**

Insho – yozma ishlarning eng murakkab turi bo'lib, o'quvchi ijodiy imkoniyatlarining ko'zgusi hisoblanadi. U o'quvchilarda ijodiy tafakkurni, badiiy didni shakllantiradi.

Mavzu yo'nalishiga ko'ra insholarni quyidagi turlar ajratish mumkin:

1. Adabiy insho.
2. Erkin insho.
3. Ilmiy insho.
4. Tasviriy insho.
5. Muhokama insho.

Insho yozish jarayonidagi muhim bosqichlardan biri unga reja tuzishdir. Reja uch qismdan iborat bo'ladi:

- I. Kirish.
- II. Asosiy qism.
- III. Xulosa.

Rejadagi har bir qism mavzuni yoritish uchun xizmat qiladi va uning mukammalligi inshoning mazmunli bo'lishini ta'minlaydi.

Rejaning kirish qismi, asosan, mavzuni yoritish uchun yo'l ochadi, unga zamin hozirlaydi. Unda asar mavzusi, yaratilish tarixi, ijodkor ijodida tutgan o'rnini to'g'risida ma'lumotlar beriladi.

Rejaning asosiy qismida inshoning mazmun-mohiyati, mavzu bo'yicha to'plangan manbalar ifodalangani, obrazlar tavsiflanadi, asar g'oyasi, mavzusi yoritiladi. Asosiy qism bir-biriga bog'langan mantiqiy qismlarga bo'linadi va bularning har biri xatboshidan yoziladi.

Rejaning xulosa qismida bayon etilgan fikrlar umumlashtiriladi, xulosalar chiqariladi.

Insho yozishga tayyorgarlik ko'rish jarayonida «Savollar va dalillar» usulidan foydalanish yaxshi samara beradi. Ushbu usulni «T» chizmasi bilan omuxtalashtirish mumkin. Buni 8-sinfda «Menga manzur bo'lgan g'azal» mavzusida insho yozish jarayonida quyidagicha tashkil etish mumkin:

Savollar	Dalillar
Janri	G'azal
Muallifi	Alisher Navoiy
Vazni	Ramali musammani mahzuf
Hajmi	Yetti baytdan iborat
Mavzusi	Ishqiy
Lirik qahramon	Sho'irning o'zi, oshiq-ma'shuq
Radifi	Kelmadi
Qofiyalanishii	Gulro', uyqu, badxo', qorong'u, kulgu, suv, o'tru, qayg'u
Badiiy vositalar	Tazod: kecha – tong...
Timsollar	May, sharob, boda, chog'ir
Begona bayt	Maqta'dan oldingi bayt
Holat va sifatlari	Sho'xi badxo', intizor, orazi-dek oydin
Maqta'	So'nggi bayt
G'azalning eng ta'sirli o'rinlarini izohlash	
Munosabat bildirish	

Shu tarzda reja tuzish, so'ng dalil to'plashga o'tish yaxshi samara beradi. Muhimi, o'quvchilar izlanishadi, ularda matn ustida ishlash malaka va ko'nikmalari rivoj-